

TA'LIMDA UZVIYLIK - BOSH ME'ZON

Srojeva Gulbahor Vahobovna

Osiyo Xalqaro Universiteti

Tarix va filologiya kafedrasini o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10404047>

Annotatsiya. Ta'lim jarayonini rivojlanadirish, uzviylikni ta'minlash uchun fanlararo aloqalardan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, tasviriy san'at va chizmachilik shunday bir fanki, bu ikkala fan bir-biriga bog'liq bo'lib, o'qituvchi hamda o'quvchidan qobiliyat va iste'dod talab qiladi, ularni ijodkorlikka yo'naltiradi. Ushbu fanlar barcha fan va har bir soha bilan uzviy bog'liq. Shunday fanlar bo'yicha bolalar bog'chasida tasviriy faoliyatning barcha yo'nalishlari bo'yicha mashg'ulotlar Navoiy shahridagi rus-o'zbek bog'chalarida tashkil etib keltingan.

Kalit so'zlar: Xonardon-bog'cha, Harakatlar strategiyasi, Sog'lom avlod, Kamalak, G'uncha, Navoiy, Konimex, Qiziltepa.

CONTINUITY IN EDUCATION-CHIEF MEZON

Abstract. It is important to develop the educational process, to make the most of interdisciplinary communication to ensure continuity. For example, Fine Arts and drawing are such a discipline that the two disciplines are interrelated, requiring ability and talent from both the teacher and the student, directing them towards creativity. These disciplines are inextricably linked with all science and each field. In such subjects, classes in all areas of pictorial activity in kindergarten were organized in Russian-Uzbek kindergartens in Navoi.

Keywords: apartment-kindergarten, action strategy, healthy generation, Rainbow, Bud, Navoi, Konimex, Qiziltepa.

ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ В ОБРАЗОВАНИИ-ГЛАВНЫЙ КРИТЕРИЙ

Аннотация. Для развития образовательного процесса, обеспечения преемственности важно эффективное использование междисциплинарных связей. Например, изобразительное искусство и рисование-это такие дисциплины, которые взаимосвязаны и требуют от учителя и ученика способностей и таланта, направляя их к творчеству. Эти дисциплины неразрывно связаны со всеми дисциплинами и каждой областью. Занятия по всем направлениям изобразительной деятельности в детском саду по таким предметам организованы в русско-узбекских детских садах города Навои.

Ключевые слова: Дом-сад, стратегия действий, Здоровое поколение, Радуга, бутон, Навои, конимекс, Кызылтепа.

Yurtboshimiz tashabbusi bilan istiqlol yillarida yoshlarga ta'lim-tarbiya berish, komil insonni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratildi. Bu o'rinda maktabgacha ta'lim muassasalarining o'rni beqiyos. Zero, bu ta'lim o'chog'ining eng nufuzli ta'lim-tarbiya maskaniga aylanganligi, uni bitirib chiqqan bolalarning dastlab iqtidorli o'quvchi, so'ngra oliv ta'lim talabasi, kelajakda yetuk mutaxassis bo'lib yetishganligi hammamizga ma'lum.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning —2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi Farmoni mazkur sohani rivojlanishini boshlab berdi. Bu esa sohani yanada takomillashtirishni, ayni paytda ta'lim tizimini zamon talablari asosida, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llash asosida tashkil etishga, yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish, 11 yillik ta'lim tizimiga o'tishni ta'minlab berdi. Binobarin, ta'lim tizimida, uzviylikka katta e'tibor qaratish, yosh avlodning barkamol bo'lib yetishi ko'p jihatdan maktabgacha ta'lim tizimiga bog'liqligi

ta'kidlab o'tildi.¹ Uzluksiz ta'lim tizimi maktabgacha ta'lim tizimidan boshlanib to yuqori bo'g'ingacha harakatda, rivojlanishda va takomillashib borishida namoyon bo'ladi. Umumiy o'rta ta'limda davlat talablarini bajarishda bolaning dastlab salomatligi, sezgirligini qay darajada ekanligi psixodiagnostik tahlil asosida bog'chadan maktabga qabulni tanlov asosida o'tkazish shartlari belgilab berilgan. Buning uchun har bir joyni mahalliy sharoiti hisobiga olingan holda 6-7 yoshli bolalarini bog'chadan maktabga tayyorlashda avvalo oila bilan bog'chada hamkorlik aloqalarini o'rnatilishi lozim. Tadqiqotimiz natijalaridan ma'lum bo'ldiki, Viloyatning ayrim maktabgacha ta'lim muassasalarida ana shunday mustahkam hamkorlik o'rnatilgan. Jumladan, bog'chalarda "Ota-onalar universitetlari" tashkil qilinishiga erishilgan. Masalan, tajriba o'rganish maqsadida, Karmana tumanidagi Kamalak va Oltin kalitcha nomli, Navoiy shahridagi bolalar bog'chalarida "Ota-onalar universitetlari" qilingan bo'lib, bolaning qiziqishi, sezgirlik, qobiliyati haqida ma'lumotlarni ota-ona, o'quvchi va tarbiyachi hamkorligida aniqlash yo'lga qo'yilgan. Hatto, uzviylikni davom ettirish maqsadida shahardagi 13-o'rta maktab Navoiy davlat konchilik institutiga maktabdan bolani tayyorlab berish uchun bog'chadan ish boshlashni yo'lga qo'ygan.

Ayni paytda viloyat xalq ta'limida mazkur hamkorlik tajribalari o'rganib kelinmoqda va ommalashtirilmoqda. Jumladan, 2018 yil aprel oyida «Sog'lom avlod - yurt tayanchi viloyat seminarida Navoiy shahar xalq ta'limi bo'limi maktab va bog'chalari ish tajribalari o'rganildi.

Ayrim bog'chalarda matematika, tabiat bilan tanishtirish, tasviriy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha alohida guruhrar tashkil etilgan. Navoiy shahridagi 4,5-bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilari maxsus sinflarga, ya'ni yo'naltirilgan sinflarga qabul qilinadi va shu yo'nalishdagi fanlar chuqur o'rgatiladi. Navoiy shahar 12-maktab ekologiya bo'yicha yo'naltirilgan maktab bo'lib, 3,26,43,49-bolalar bog'chalari bilan hamkorlikda ish olib boradi. Umuman, Navoiy shahridagi barcha maktab va bog'chalarning hamkorlik tajribalari usuli boshqa barcha tuman, shaharlardagi maktabgacha ta'lim muassasalariga tadbiq etilib kelingan.

Ta'lim jarayonini rivojlantirish, uzviylikni ta'minlash uchun fanlararo aloqalardan unumli foydalanish muhim ahamiyatga ega. Masalan, tasviriy san'at va chizmachilik shunday bir fanki, bu ikkala fan bir-biriga bog'liq bo'lib, o'qituvchi hamda o'quvchidan qobiliyat va iste'dod talab qiladi, ularni ijodkorlikka yo'naltiradi.

Ushbu fanlar barcha fan va har bir soha bilan uzviy bog'liq. Shunday fanlar bo'yicha bolalar bog'chasida tasviriy faoliyatning barcha yo'nalishlari bo'yicha mashg'ulotlar Navoiy shahridagi rus-o'zbek bog'chalarida tashkil etib kelingan. Bular: qurish va yasash, haykal taroshlik, rasm chizish, borliqni idrok etish va hokazo.

Viloyat bog'chalarda mashg'ulotlar ilg'or pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan. Ayniqsa, Navoiy shahridagi barcha bog'chalarda mashg'ulotlar reja asosida o'tkaziladi. Shaharlardagi 23,18,43,38-bog'chalarda tarbiyachilarning bilimlari —Tayanch signali, —Aqliy hujum usulida o'rganilganda, DTSga oid talablarining: milliy san'at, naqqoshlik, xalq hunarmandchiligi, rassomchilikka oid bilimlarga ega bo'lganligi aniqlanib, maktabga yo'llanmalar berilmoqda. Tasviriy san'at bolalarning eng sevimli mashg'uloti bo'lgani uchun viloyatning barcha bog'chalarida bu mashg'ulotning o'tkazilishi to'g'ri yo'lga qo'yilgan.

Mashg'ulotlar uchun o'quv qurollari ota-onalar homiyligida barcha bog'chalarda ta'min etishga erishilgan. Bog'chalar maktablar o'zaro hamkorlikda ish olib boradilar. Jumladan, Navoiy shahridagi 23 — bog'cha 11 — maktab bilan 18 — bog'cha 4 — maktab bilan 16 — bog'cha 8 — maktab bilan reja asosida mashg'ulotlar olib borishni tashkil etilgan. Ma'lumki, yangi ta'lim tizimiga

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning —2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida gi Farmoni. Xalq so'zi. 2017 yil, 30 sentyabr.

muvofiq yer shari haqidagi to'liq tasavvur hosil qilish uchun ma'lumot berishga qaratilgan yagona o'quv fani geografiyadir. Tadqiqot etilayotgan yillar mobaynida maktabgacha ta'lim muassasalarida boshlang'ich geografik bilimlar bolalar ongiga singdirib kelingan. Ayniqsa, Konimex tumanidagi «G'uncha maktabgacha ta'lim muassasasi bugungi kungacha «Ekologik tarbiya yo'nalishi bo'yicha ish olib bormoqda. Bolalarga o'zлari yashab turgan joy tabiatini, o'simlik va hayvonot dunyosini o'rgatish bilan bir qatorda, tabiatni avaylab-asrash zarurligi uqdirib boriladi. Bu bog'chada ekologik burchaklar tashkil etilgan va shu mavzuga bag'ishlab seminarlarlar o'tkazib kelingan.

Arxiv hujatlari shuni tasdiqlamoqdaki, 2000-2020 yillar mobaynida hamkorlikning yana bir yo'nalishi bo'yicha bog'cha-maktab hamkorligi yo'lga qo'yilishiga erishilgan. Maktabgacha ta'lim tizimi uluksiz ta'lim tizimining 1-bosqichi hisoblanadi. Ularga bolalarni maktab bosqichiga ma'naviy, ruhiy, jismoniy sog'lom qilib tayyorlab berish vazifasi yuklatilgan. Viloyat maktabgacha ta'lim muassasalarida «Bolalarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash tayanch dasturi ishlab chiqilgan. Dastur asosida har yili viloyatimizdagi Navoiy shahri, Zarafshon shahri, Karmana, Navoiy, Qiziltepa, Xatirchi tumani maktablarida bolalarni maktabga tayyorlash bo'yicha maxsus tashkil etilgan markazlarda bolalar bog'chalarining tayyorlov guruhlarida, yakka tartibda, bolalar maktabga tayyorlab berilayapti. Shu jumladan har yili 26400 ga yaqin bolalar maktabga tayyorlanyapti. Tadqiqot etilayotgan yillar mobaynida viloyatda bog'cha-maktab hamkorligi bo'yicha maktab bog'chalari tashkil etilishiga alohida e'tibor qaratib kelingan. Shunga ko'ra, Karmana tumanidagi 2-maktabda bog'cha guruhi hamda, Navoiy shahridagi

64 - bog'chada bog'cha-maktab tashkil etilgan. Karmana tuman 2 maktab-bog'chada asosan mashg'ulotlar rus tilida olib boriladi. Tarbiyalanuvchilarga Osipyan Margarita Mixaylovna, T.T Pishkova va P. Abdullakarimovalar davlat tili ya'ni o'zbek tilini va hozirgi kunda har bir yosh bilishi zarur bo'lgan ingliz tilini o'rgatadilar. Maktabning har bir tadbiri va bayramida bog'cha bolalari o'zlarining rang-barang qiziqarli qo'shiqlari, o'yinlari bilan qatnashib keladilar. Bog'chada asosan bolalarning nutqi o'stiriladi (har bir tilda ham).²

Navoiy shahar 18 – son va 23-son MTM lar negizida —Maktab – bog'cha komplekslar tashkil qilingan bo'lib, bu kompleksda ochilgan 4 ta birinchi sinflarda har yili 100 nafar bolalarga barcha qulayliklar yaratilgan hamda kichkintoylarga sifatli ta'lim-tarbiya berib kelinmoqda. Mahalliy aholi tili bilan aytganda shu —dargohga ta'lim-tarbiya olayotgan kichkintoylarning salohiyati ancha yuqori.

Viloyat maktabgacha tarbiya muassasalarining ayrimlarida —Nutq o'stirish mashg'ulotlarida rasmga qarab hikoya tuzish, ertak qahramonlari bo'yicha fikr bildirish, ijodiy o'yinlar o'tkazish orqali amalga oshiriladi. Masalan, Navoiy shahridagi 64 – bog'cha tarbiyachisi Nodira Karimovaning mashg'ulotlaridagi ijodiy o'yinlar, Qiziltepa tumanidagi 10 – bog'cha tarbiyachisi Marhabo Qayumovaning rasmga qarab hikoya tuzish mavzusidagi mashg'ulotlari bunga misol bo'la oladi. 2016 yilda viloyat miqyosida o'tkazilgan bolalar bog'chalari tarbiyalanuvchilarining «Sen yo'l qoidasini bilasanmi? ko'rrik-tanlovida Karmana tumani 2-maktab-bog'chasi faxrli 1-o'rinni oldi. Shahar, viloyatda o'tkaziladigan har bir tadbirda tarbiyalanuvchilar faol ishtirok etib, faxrli o'rirlarni egallaydilar. Katta yoshdagи bolalar guruhlarida mashg'ulotlar ilg'or pedagogik texnologiya asosida tashkil etilgan. Bolalar uch tilda salomlashadilar, O'zbekiston Respublikasining madhiyasini o'zbek tilida aytib mashg'ulotni

² Мустақиллик одимлари, ислоҳатдаги туб бурилишлар ва натижалар. Навоий, 200,16-бет 2. Navoiy viloyati Maktabgacha ta'lim muassasalari boshqarmasi joriy arxivi. 2019 yi hisoboti. Navoiy shahar xalq ta'limi boshqarmasi bo'limi joriy arxivi. 2018 yil hisoboti.

boshlaydilar. 2020 yildan boshlab tuman maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni maktabga tayyorlash istiqbol dasturi asosida har yili shanba - yakshanba guruhlari va boshqa turdag'i markazlar tashkil etilgan bo'lib, ularda bolalar muktab ta'limiga tayyorlanadilar. Mazkur to'garaklarda kichkintoylarni maktabga tayyorlashga xizmat qiluvchi, rivojlantiruvchi muhit yaratilgan.

Bular: bolalar dunyoqarashini o'stiruvchi, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi milliy burchaklar, kichik muzeylar, kitob burchaklari, o'yin va o'yinchoqlar bilan jihozlangan o'quv xonalari va boshqalar. Shuningdek, mazkur sohadagi tajribalar o'rganilgan va ommalashtirilgan. Jumladan, 2017 yilning may oyida Navoiy shahridagi Xalq ta'limiga qarashli № 23 – sonli bolalar bog'chasida —Bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik xizmatning o'rni mavzusida viloyat seminari o'tkazilgan. Viloyat maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagog–tarbiyachi murabbiylarning bolalarni maktabga tayyorlash, mahalla, muktab, oila va bog'cha hamkorligida olib borgan ishlari diqqatga sazovor. Arxiv hujjatlari buni yana bir bora tasdiqlaydi. Chunonchi, ushbu maktabgacha ta'lim muassasalarida ta'lim – tarbiya ishlari ota-onalar xohishi va bolalarning ilk qiziqishlari hamda imkoniyatlarini hisobga olgan holda tabaqallashtirilgan yo'naliishlarda tashkil etilgan. Jumladan, viloyat Xalq ta'limi boshqarmasi tomonidan bolalar bog'chalarida rivojlantiruvchi muhitni tashkil etish bo'yicha uslubiy yordam uyuştirib turilgan.

Ta'limning uzviylikni ta'minlash maqsadida maktabgacha ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tadbirlar kelajagimiz quruvchilari bo'lgan bolalarimizni bog'chadan so'ng maktabda dastlabki ta'lim sir-asrorlarini o'rganish, o'z qobiliyatlarini namoyon etish va o'z bilimlarini mustahkamlab borishida keng yo'l ochib bergen. Davlatimiz rahbari Sh.M.Mirziyoyev 2017 yil 19 dekabrda maktabgacha ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlarni tahlil qilish va istiqboldagi vazifalarni belgilab olishga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida: maktabgacha ta'limga qo'yiladigan davlat talablari, ta'lim-tarbiya dasturlarini ilg'or xorijiy tajribalar asosida takomillashtirish, ularda bolalarga o'qish va yozishni turli o'yinlar orqali o'rgatishni nazarda tutish lozimligi ta'kidlandi. Shuningdek, bog'chalarda ta'lim-tarbiya va tibbiy xizmat sifatini oshirishga qaratilgan dasturlar tuzish, 2018 yili maktabgacha ta'lim muassasalarini Janubiy Koreya tajribasi asosida uslubiy va didaktik o'yinlar, o'yinchoqlar, mebel va boshqa texnik vositalar bilan ta'minlash me'yorlari ishlab chiqish vazifasi yuklatildi.

Xorijiy tajribalardan foydalanish albatta bizdan ta'lim-tarbiyaviy va uslubiy yo'naliishdagi metodlarimizni yangilashni talab etadi. Chunki, xorijiy tajriba bolalarni turli o'yinchoqlar orqali atrof muhitni, olamni idrok etishga asoslangan. Shu sababli bu sohada ham ilmiy izlanish olib borish talab etiladi.

Bugunda —Bolalarni asraylik xalqaro tashkiloti tomonidan tuzilgan jahon reytingida O'zbekiston bolalar salomatligini mustahkamlash borasida katta g'amxo'rlik ko'rsatayotgan eng ilg'or etakchi o'nta mamlakat qatoriga kiritilgani, albatta, barchamizga yuksak g'urur va iftixon bag'ishlaydi. Bugunda, viloyatning bir qator maktabgacha ta'lim muassasalarida olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlari ota-onalar xohishi va bolalarning ilk qiziqishlarini va imkoniyatlarini hisobga olgan holda tabaqallashtirib sog'lomlashtirish chet tilini o'rgatish ekologik, iqtisodiy, san'at va boshqa yo'naliishlarga olib borilmoqda.

Ta'lim muassasalarida davlat talablaridan kelib chiqib, bolalarning jismoniy rivojlanishi, ijodiy qobiliyati, dunyoqarashini o'stiruvchi, mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiruvchi milliy burchaklar, kichik muzeylar, kitob burchaklari, o'yin va o'yinchoqlar bilan jihozlangan kichkintoylarni maktabga tayyorlashda xizmat qiluvchi, rivojlantiruvchi muhit yaratilmoqda.

REFERENCES

1. Vahobovna, S. G. (2021). Khoja Abdulkhaliq Ghijduvani And Its Method. *European Journal of Humanities and Educational Advancements*, 2(10), 39-40.
2. Srojeva, G. (2023). LOWER ZARAFSHAN OASIS TOURISM OPPORTUNITIES. *Modern Science and Research*, 2(10), 199–204. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/25067>
3. Toshpulatova Shakhnoza Shuhratovna. (2023). ETYMOLOGY OF TAJIK MARRIAGE CEREMONY. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(11), 17–23. <https://doi.org/10.37547/ijhps/Volume03Issue11-05>
4. Toshpo'latova, S. (2023). ETHNOLOGICAL ANALYSIS OF CALENDARICAL CALCULATION AND LENGTH MEASUREMENTS OF KHUF VALLEY TAIKS IN THE RESEARCHES OF MS ANDREYEV. *Modern Science and Research*, 2(10), 291-299.
5. Toshpo'latova, S. S. (2023). TOJIKLAR MILLIY KIYIM-KECHAKLARI VA "BESHMORAK" MAROSIMINING ETNOLOGIK TAHLILI. *SCHOLAR*, 1(28), 395-401
6. Shokir o'g'li, S. U. (2023). MAHALLANING JAMIYAT IJTIMOIY TARAQQIYOTIDAGI O'RNI. *Научный Фокус*, 1(6), 369-371.
7. Shokir o'gli, S. U. (2023). The Essence of State Policy on Youth in New Uzbekistan. *American Journal of Language, Literacy and Learning in STEM Education* (2993-2769), 1(9), 554-559.
8. Shokir O'g'li, S. U. (2023). THE IMPORTANCE OF THE MAHALLA SYSTEM'S REFORMATIONS IN NEW UZBEKISTAN. *International Journal Of History And Political Sciences*, 3(10), 25-30.
9. OXUNJONOVICH, Q. Z. (2022). CHANGES OF LYULI IDENTITY. *International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences*, 2(3), 74-83.
10. Mavlanova Mehnbonu Obid qizi, & Koryogdiyev Zufar Okhunjonovich. (2023). THE ROLEOF NATIONAL VALUES AND SPIRITUAL AND EDUCATIONAL WORKS IN THE EDUCATION OF THE YOUNG GENERATION. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 17, 81–84. Retrieved from
11. Okhunjonovich, K. Z. (2023). THE EDUCATIONAL VALUE OF NATIONAL CUSTOMS AND TRADITIONS IN THE ERA OF GLOBALIZATION. *American Journal of Interdisciplinary Research and Development*, 18, 64-66.
12. Okhunjonovich, K. Z. (2021). Self-Awareness of Gypsies: Traditionality and Modernity. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 2(7), 33-42
13. Корёгдиев, З. О. (2016). ACTIVITIES OF AMUDARYA FLOTILLA AT THE END OF THE NINETEENTH CENTURY-BEGINNING OF THE TWENTIETH CENTURY HISTORY (" TURKESTAN COLLECTION" MATERIALS). Ученый XXI века, (12 (25)), 20-22.
14. Bobohusenov, A. (2023). BUXORO VOHASINING ANTIK DAVRI YODGORLIKHLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 298-302.

15. Akmal, B. (2023). QADIMGI BAQTRIYA MADANIYATI VA YODGORLIKHLARI TIPOLOGIYASI. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI*, 3(7), 100-102.
16. Akmal, B. (2023). BUXORO VOHASI QOYATOSH SURATLARINING DAVRIY TASNIFI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 29(1), 142-146.
17. Bobohusenov, A. (2023). QADIMGI VARAXSHA DEVORIY GANCH VA LOY BEZAKLARI. *SCHOLAR*, 1(28), 303-308.
18. Муродов, X. (2022). MUSTAQILLIKNING DASTLABKI YILLARIDA O'ZBEKISTONDA XALQARO TURIZMNING RIVOJLANISHI VA UNING ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.
19. Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences., 1(4), 13-13.
20. Halimovich, M. H. (2022). Tourism Development in Bukhara During the 1990s and Its Problems. *International Journal on Integrated Education*, 5(6), 298-302.
21. Muxamedovna, G. M. (2023). INNOVATSION TALIM-BUYUK KELAJAK POYDEVORI. *World scientific research journal*, 17(1), 74-76.
22. Muxamedovna, G. M. (2023). UCHINCHI RENESANS DAVRIDA AJDODLARIMIZ MEROSINI ORGANISH ORQALI INTEGRATSION TA'LIMNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH TAMOYILLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 22(1), 35-38.
23. Muxamedovna, G. M. (2023). KREATIV YONDASHUV ASOSIDA DIDAKTIK MATERIALLAR YARATISH MEXANIZMLARI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 21(3), 12-14.
24. Ilniyoz o'g'li, S. F. (2023). XX ASR 2-YARMI XXI ASR BOSHLARI ZARAFSHON VOHASIDA ETNOSLARARO MUNOSABATLAR. *TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMUY JURNALI*, 3(9), 1-5.
25. Sayfutdinov Feruz Ilniyoz o'g'li. (2023). XIX ASRDA XONLIKLARNING O'ZARO SAVDO MUNOSABATLARI. *JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING*, 2(8), 111–114. Retrieved from <https://jsrt.innovascience.uz/index.php/jsrt/article/view/284>
26. Shuhrat kizi,R.S.(2023). The Development of Spiritual and Cultural Reforms in the Development 32. Strategy of New Uzbekistan. International Journal of Culture and Modernity, 61–